Saydaxmadov A'zamxon Valixonovich, Qosimova Nargizaxon Rustamxon qizi	
The Role of Music in Human Spiritual Development and Educational Significance.....	717
Shokirkhonov Bakhtiyorxon Botirkhonovich	
Boshlang'ich ta'limda tabiatga ongli munosabatni shakllantirishning nazariy metodologik asoslari.....	722
Sayfedinova Dildora Ikramiddinova	
Gematologik-onkologik kasalliklarga chalingan o'quvchilar uchun gosptal maktablarida ta'lim jarayonini tashkil etish	726
Isamuxamedova Dildora Raxmatillayevna, Qayumova Sabrina To'liqin qizi	
Neologizmlar – badiiy matnda uslubiy vosita sifatida	730
Ibragimova Shoira Normuminovna	
Optimisation of Technical and Physical Potential in the Implementation of the Rotational Method of Pushing the Core.....	733
Tajimbetov Anvar Tengelbayevich	
Magistrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish – kasbiy faoliyatda o'z-o'zini shakllantirish omili sifatida.....	736
Turmatov Jaloliddin Raxmatullayevich	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish modeli	743
Usmonova Kamola Erkinovna	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining ijtimoiy lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	749
X. A. Suyunova	
Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda autentik materiallarning o'rni	752
Xudoyberdiyeva Zumrat Xudayberdiyevna	
Motivatsiya – inson faoliyatini harakatga keltiruvchi psixologik omil sifatida	756
Yo'ldoshev Javlon Ablanazar o'g'li	

Цифровые технологии и искусственный интеллект в обучении иностранным языкам: теоретико-методологический анализ	760
<i>Абидова М. И., Абидова Д. М.</i>	
Сюжетно-ролевая игра как способ психоэмоционального развития детей дошкольного возраста, находящихся на длительном лечении	764
<i>Амитова Майисия Рахмателлаевна</i>	
Эффективные приемы презентации лексики на уроках иностранного языка	767
<i>Гилязиева Насиба Михайловна</i>	
Речевые действия в методике формирования коммуникативной компетенции при обучении РКИ ...	770
<i>Ислямова Сония Юнусовна</i>	
Трансформация ценностей, связанных с физической активностью, у представителей разных поколений: результаты современных исследований	779
<i>У. Ш. Салимов</i>	
Innovatsiyalar va an'analar integratsiyasi asosida talabalarni ma'naviy ruhda tarbiyalashni takomillashtirish	784
<i>Usmonova Dilafruz Umirzoqovna</i>	
Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash samaradorligi	788
<i>Sharipov Ulug'bek Ibotovich</i>	
Texnologiya fanida raqamli ta'lim resurslari asosida amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish metodikasi	792
<i>X. Ch. Dusyorov, X. A. Qulmamatova, N. O. Shog'darov</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarining strategik boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish tendensiyalari	796
<i>Itolmazova Gulzoda Qurbongeldiyevna</i>	
Sinfdan tashqari ishlar orqali boshlang'ich ta'lim o'quv jarayoniga sun'iy intellektni tatbiq etish metodikasi	800
<i>Nigmatullayeva Matluba Izatullo qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborotga oid ko'nikmalarni shakllantirishda didaktik o'yinlarning roli	805
<i>Shononova Gulsanam Shavkat qizi</i>	
Masofaviy ta'lim sharoitida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish tajribasi	810
<i>Shukurov Mirshod Karim o'g'li, Sharipov Bahrom Bo'riyevich</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida innovatsion metodlarning sifatli ta'limdagi o'rni	816
<i>Jabbarova Zuhra Omondullayevna</i>	
Zamonaviy yondashuvlar asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish	819
<i>Bozozrova Adiba Xudayarovna</i>	
Ta'lim muassasalarida psixologik xizmatni olib borishda psixodiagnostik faoliyatning o'rni	823
<i>Odamova O'g'iljon Kenjayevna</i>	
Pedagogical and Psychological Possibilities of Technological Education in Developing Constructive Thinking in Early School Age	827
<i>Egamova Anbarjon Atanazarovna</i>	
Shaxsda empatiya shakllanishining yosh davrlar bo'yicha psixologik xususiyatlari	832
<i>Kurbanova Zaynab Jurakulovna</i>	
Voleybolchilarning tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari	836
<i>Mustafayev Yoqubjon Xayrullayevich, Samatova Maftuna Sohib qizi</i>	
Oliygo'h talabalari o'rtasida basketbol sporti mashg'ulotlari orqali jismoniy sifatlarini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari	840
<i>Mustafayev Yoqubjon Xayrullayevich, Husenova Norjona Umid qizi</i>	
Inson shaxsini shakllantirishda jamiyat tarbiyasining ahamiyati	844
<i>Normurodova Munisa Nuriddin qizi</i>	
Ikki tilli nutqda kod almashtirish hodisasining lingvistik, pragmatik va ijtimoiy funksiyalari	847
<i>Nurmamatova Zarifa Abdiraup qizi</i>	
Yosh kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini shakllantirish metodikasi	850
<i>Nurullayev Abdixoliq Qaxxorovich</i>	



Jismoniy tarbiya murabbiylarining faoliyatini sport klublarida tashkil qilishning integrativ mexanizmlari didaktik-metodik yondashuvlar	853
O'rinov Oblaqul Jumayevich	
O'quvchilarning ta'lim olish jarayoniga zamonaviy o'qitish usullarining ta'siri	857
Ochilova Sarvinoz Bozor qizi	
Talabalarga Regbi-7 sport o'yinida himoya va hujum usullari hamda texnologiyalarini takomillashtirish	860
Ramazonova Gulmira G'olib qizi	
Oliy ta'limda siyosiy tafakkurni shakllantirishda sun'iy intellektning pedagogik modeli: nazariya va amaliyot uyg'unligi.....	863
Rasulev Bobirjon Atxamovich	
Boshlang'ich sinflar ta'lim tizimida kommunikativ ta'lim harakatlarini shakllantirishning tashkiliy-pedagogik shartlari	867
Shoira Rahimova Adilbekovna	
Raqamli texnologiyalar asosida talabalarning o'quv faoliyatini integrativ mexanizmlar orqali tashkil qilish va rivojlantirish.....	871
Sirojev Otajon Orifjonovich	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini mediata'lim resurslari vositasida rivojlantirish metodikasi	875
Suleymanova Ra'no Dustbekovna, Bekova Nilufar Aliboy qizi	
Nemis tilidan o'zbek tiliga tarjimada yuzaga keladigan lingvistik va kommunikativ qiyinchiliklar.....	881
Turamurodova Sevinch Anvarovna	
Globallashuv jarayonida ma'naviy-mafkuraviy mexanizmlarning estetik madaniyatda ifodalanishi	884
Xudayberdiyeva Xuriyat Karimberdiyevna	
Ta'limga kommunal xizmatlardan foydalanish madaniyatini olib kirishning dolzarbligi	888
Kodirova Kumushoy Farxodjon qizi	
Innovatsion yondashuvlar asosida ekologik ta'limni tashkil etish texnologiyalari	892
Allaberdiyeva Kumri Xamrayevna, Toshmurodova Marjona	
История, теоретические основы и современные направления развития вида спорта "кураш"	898
Дустов Дилмурод Каримович	
Совершенствование инновационных технологий через виды спортивной деятельности студентов педагогических высших учебных заведений.....	902
Турдиев Умиджон Камолитдинович	
Методика развития навыков самостоятельного обучения учащихся с помощью онлайн-образовательных платформ	906
Суяров Хуршид Бахриддинович	
Oliy o'quv yurtlari talabalari sport faoliyatining turli jihatlarida ta'lim innovatsiyalaridan foydalanish texnologiyalari	910
Turdiyev Umidjon Kamoliddinovich	
Роль оздоровительной аэробики в повышении физической подготовленности учащихся	914
Яхшиева Мехринигор Шавкатовна	
O'quvchilarda milliy tuyg'ularni tarkib toptirishning mazmuni (dastur, darsliklar tahlili) va vositalari.....	919
Begmatova Nasiba Safarbayevna	
Innovative Method for the Treatment of Chronic Periodontitis Using the "Geistlich Bio-Oss" Preparation..	923
Pardayev Xurshidjon Uralovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida harakatli o'yinlar orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish samaradorligi.....	926
Mirjamolov Sirojiddin Xayriddinovich	
Bo'lajak ona tili o'qituvchilarining kognitiv-pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy va metodik asoslari	931
Tursunoy Yusupova	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni qo'g'irchoq teatri vositasida axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish.....	936
Zulayxo Nazarova, Musayeva Sayyora Erkaboy	

5-6 sinflarda matematika fanini o'qitishda mrt yondashuvini mblock v.5.4.3 dastur bilan takomillashtirish .	940
<i>Abduqodirova Patmaxon Tursunboevna, Moxinur Ruziyeva Mirzoulug'bek qizi</i>	
Kredit modul tizimida bo'lg'usi o'qituvchilarning muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	946
<i>Abdurasulova Shoira Kushakovna, Xaitqulova Gulrux Qaxramon qizi, Abdumo'minova Charos Baxodir qizi</i>	
Maktablarda matematikadan o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish	950
<i>Absattarova Gulmira</i>	
Pedagogik jarayonda innovatsion texnologiyalarning roli va samaradorligi	953
<i>Akromova Nigora Erkinovna</i>	
Harakatga oid masalalarni yechish jarayonida jadvallardan foydalanishning samaradorligi	955
<i>Raximova Shoira Adilbekovna, Axmadjonova Lobar Otabek qizi</i>	
Matematika darslarida interfaol metodlarning ahamiyati	959
<i>Bekniyazova Nursulu</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik asoslari	962
<i>Egamberdiyeva Yulduzxon Urinbayevna, Tojiboyeva Mo'nisaxon Umidbek qizi</i>	
Pedagogikaning mohiyati, vazifalari va ta'lim-tarbiyadagi zamonaviy yondashuvlar	965
<i>Ergasheva Dilnavoz Baxtiyor qizi</i>	
Zamonaviy ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish.....	968
<i>Isayeva Umida Nig'matjanovna</i>	
Matematika fanini o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati va uning pedagogik samaradorligi.....	970
<i>Mirzabaeva Malika</i>	
Bo'lajak energetik muhandislarni tayyorlashda yashil energetika ta'limini rivojlantirish	974
<i>Narimanov Baxodir Absalomovich</i>	
Modern Aspects of Epidemiological Issues in Periodontal Diseases Associated With the Consumption of Groundwater	977
<i>Nematova Farzona, Sankulov Jamshed Obloberdiyevich</i>	
Modern Insights Into the Epidemiology of Periodontal Diseases Linked to Groundwater Consumption.....	981
<i>Nematova Farzona, Sankulov Jamshed Obloberdiyevich</i>	
Falsafa fanining boshqa fanlar bilan integratsiyalash imkoniyatlari va metodologik asoslari hamda o'ziga xos xususiyatlari	983
<i>Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'gli</i>	
Pedagogik oliy ta'lim talabalarida liderlik qobiliyatini rivojlantirishda xorijiy tajribalar tahlili	986
<i>Shobduraximova Umriniso, Abduqaxxorova Moxinur</i>	
Logopedik mashg'ulotlarni tashkil etishda logopedik o'yinlarning ahamiyati va roli	990
<i>Yuldosheva Dilbarxon Turg'unovna</i>	
Mechanical Destruction of a Dental Implant.....	993
<i>Bojev Zukhriddin, Doniyorov Ortik</i>	
Инновационные подходы к диагностике и лечению кариеса: современные технологии в практике стоматолога.....	997
<i>Шукурова Нодира Тиллаевна, Шукуровна Наргиза Фуркатовна, Фуркатова Сабрина Фармоновна</i>	



O'QUVCHILARDA MILLIY TUYG'ULARNI TARKIB TOPTIRISHNING MAZMUNI (DASTUR, DARSLIKLAR TAHLILI) VA VOSITALARI

Begmatova Nasiba Safarbayevna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
2-bosqich mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: O'quvchilarda milliy tuyg'ularni tarkib toptirishning pedagogik mazmuni o'ziga xos yondashuvni talab etadi. Hozirgi globallashuv sharoitida bu jarayon murakkab va yuqori mas'uliyatni taqozo etuvchi vazifa hisoblanadi. O'z ustida ishlash, jahon va milliy pedagogik tajribalarni o'rganish davr talabi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu jarayon o'quvchilarda millat yutuqlari bilan faxrlanish, ijtimoiy muammolarga befarq bo'lmaslik hamda milliy birlikni mustahkamlash tuyg'ularini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Mazkur tuyg'ular mazmunan yurtparvarlik, millatparvarlik va yaratuvchanlik g'oyalarini tarixiy shaxslar, allomalar va milliy madaniy meros orqali singdirishga asoslanadi. Asosiy vositalar sifatida tarixiy-ilmiy hamda adabiy-badiiy asarlar orqali g'urur tuyg'usini uyg'otish; etnopedagogik usullar – folklor, maqollar va xalq og'zaki ijodi orqali milliy g'ururni rivojlantirish; vizual-estetik didaktik vositalar, vatanparvarlik qo'shiqlari va san'at orqali emotsional ta'sir ko'rsatish; an'anaviy tarbiya shakllari – oilaviy muhit va tarixiy shaxslar misolida vatanparvarlikni shakllantirish; interaktiv darslar va tarbiyaviy tadbirlar, shuningdek, raqamli vositalar – videofilmlar, interaktiv platformalar va mazmunan boyitilgan taqdimotlardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maqolada o'quv jarayonida o'quvchilarda milliy tuyg'ularni tarkib toptirishning mazmuni va vositalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: o'quvchilar, mas'uliyat, pedagogik usullar, vatanni sevisht, milliy qadriyatlar, milliy tuyg'ular, insonparvarlik, milliy vatanparvarlik.

Abstract: The pedagogical content of developing national feelings in students requires a distinctive and systematic approach. In the context of contemporary globalization, this process represents a complex and highly responsible educational task. Continuous self-development and the study of global and national pedagogical practices are considered essential requirements of the time. This process involves fostering students' pride in national achievements, encouraging social responsibility, and strengthening national unity. These feelings are grounded in the promotion of patriotism, national identity, and creativity through historical figures, scholars, and national cultural heritage. The main tools include historical-scientific and literary-artistic works, ethnopedagogical methods such as folklore, proverbs, and oral traditions, visual and aesthetic didactic resources, patriotic songs and art, traditional educational practices within the family environment, interactive lessons and educational activities, as well as modern digital tools including videos, interactive platforms, and content-enriched pedagogically effective presentations. The article examines the content and means of fostering national feelings among students within the educational process.

Key words: students, responsibility, pedagogical methods, love for the homeland, national values, national feelings, humanism, national patriotism.

Аннотация: Педагогическое содержание формирования у учащихся национальных чувств требует особого, целенаправленного подхода. В условиях современной глобализации данный процесс представляет собой сложную и ответственную педагогическую задачу. Работа над собой, изучение мирового и национального педагогического опыта выступают актуальным требованием времени. Этот процесс включает формирование у учащихся чувства гордости за достижения нации, активной гражданской позиции, а также укрепление национального единства. Указанные чувства основываются на внедрении идей патриотизма, национальной идентичности и созидательности через образы исторических деятелей, ученых и национальное культурное наследие. В качестве основных средств рассматриваются историко-научные и литературно-художественные произведения, этнопедagogические методы (фольклор, пословицы, устное народное творчество), визуально-эстетические дидактические средства, патриотические песни и искусство, традиционные формы воспитания в семейной среде, интерактивные занятия и воспитательные мероприятия, а также современные цифровые ресурсы – видеоматериалы, интерактивные платформы и содержательно обогащенные презентации. В статье анализируются содержание и средства формирования национальных чувств у учащихся в образовательном процессе.

Ключевые слова: учащиеся, ответственность, педагогические методы, любовь к Родине, национальные ценности, национальные чувства, гуманизм, национальный патриотизм.

KIRISH

Milliy tuyg'u – bu muayyan millatga mansub bo'lgan insonlarning o'zligini, tarixini, madaniyatini va tilini sevishtirish hamda ularni qadrlash hissidir. His etish va tuyish faqat insonning muhim vazifasiga emas, balki muqaddas burchi ham sanaladi. Yer yuzining qaysi hududida yashashdan qat'i nazar, har bir inson bu jarayonni albatta boshidan kechiradi, sababi u aynan shu yurtida tug'ilib o'sgan va kamol topgan bo'ladi.

Hozirgi globallashuv jarayonlari, axborot makonining kengayishi va madaniy ta'sirlarning kuchayishi sharoitida o'quvchilarda milliy tuyg'ularni shakllantirish ta'lim tizimi oldida turgan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki milliy tuyg'ular shaxsning ijtimoiy faolligi, ma'naviy barkamolligi hamda fuqarolik pozitsiyasini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlarda ham yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, vatanparvar shaxs sifatida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa o'quvchilarda milliy tuyg'ularni shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslarini chuqur o'rganishni taqozo etadi ^[1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasida yosh avlod tarbiyasiga oid davlat siyosatida milliy tuyg'ularni shakllantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, Shavkat Mirziyoyev o'z nutq va asarlarida yoshlarni milliy o'zlikni anglagan, vatanparvar va ma'naviy yetuk shaxslar etib tarbiyalash masalasini strategik vazifa sifatida belgilaydi.

Prezident ta'kidlaganidek: “Agar biz yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, mustaqil fikrlaydigan insonlar etib tarbiyalay olsak, yurtimiz kelajagini ishonchli qo'llarga topshirgan bo'lamiz” ^[2]. Mazkur qarashlar o'quvchilarda tarixiy ong, milliy g'urur va vorisiylik tuyg'ularini shakllantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, Sh. Mirziyoyev yoshlar ongida vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlash masalasini milliy xavfsizlik va barqaror taraqqiyot bilan chambarchas bog'laydi. Uning fikricha: “Vatanparvarlik – bu shunchaki balandparvoz so'zlar emas, balki har bir yoshning kundalik hayotiy pozitsiyasi bo'lishi kerak” ^[3]. Bu yondashuv o'quvchilarda milliy tuyg'ularni faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy faoliyat orqali tarkib toptirish zarurligini ko'rsatadi.

Demak, Prezident Sh. M. Mirziyoyevning qarashlari o'quvchilarda milliy tuyg'ularni shakllantirishning:

- mafkuraviy asoslarini;
- pedagogik yo'nalishlarini;
- ijtimoiy ahamiyatini

ilmiy jihatdan asoslab beradi hamda mazkur jarayonni davlat miqyosidagi ustuvor vazifa sifatida e'tirof etadi.

Ilmiy adabiyotlarda “milliy tuyg'u” tushunchasi shaxsning o'z millatiga, xalqning tarixiy taraqqiyoti, madaniy merosi, urf-odatlar va an'analarga nisbatan ongli, hissiy va ijtimoiy munosabati sifatida talqin etiladi. Pedagogika va psixologiya fanlarida milliy tuyg'ular shaxs ma'naviyatining muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiladi ^[4].

Sharq pedagogikasida Abu Nasr Forobiy ta'lim va tarbiya masalasiga ilmiy ta'rif bergan buyuk allomalardan biridir. U shunday deydi: “Ta'lim degan so'z insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berishni anglatadi, tarbiya esa insoniy fazilatlarini, muayyan hunar yoki kasbni egallash uchun zarur bo'lgan xulq-atvor me'yorlarini o'rgatishdir”. Maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamolga yetkazadi.

Forobiy ta'lim va tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish hamda murabbiyning ma'naviy barkamolligini ta'minlash zarurligini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, murabbiy xohish-iroda, qobiliyat, yaxshilik va yomonlik mohiyatini chuqur anglaydigan shaxs bo'lishi lozim. Allomaning ta'lim-tarbiya yo'llari, usullari va vositalari haqidagi qarashlari ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Forobiyning ta'kidlashicha, insonda go'zal fazilatlar ikki yo'l bilan – ta'lim va tarbiya orqali shakllanadi. Ta'lim nazariy va amaliy bilimlarni rivojlantirsa, tarbiya esa insoniy fazilatlar, kasbiy malakalar va xulq-odob ko'nikmalarini shakllantiradi. Abu Nasr Forobiy “Baxt-saodatga erishuv to'g'risida” asarida ta'lim-tarbiyani rag'batlantirish, odatlantirish va zarur holatlarda majbur etish usullari orqali amalga oshirish mumkinligini asoslaydi.

Shaxs kamolotida ta'lim va tarbiya birligini ta'minlashda ustoz va shogird munosabatlari hal qiluvchi omil sifatida e'tirof etiladi. Sharq an'analari ustoz shogirdni qabul qilgan kundan boshlab, uning ma'naviy mas'uliyatini o'z zimmasiga olishi muhim hisoblangan ^[5].



Abdulla Avloniy milliy tarbiya masalasiga alohida e'tibor qaratib, tarbiyani "yo hayot, yo mamot masalasi" sifatida baholaydi hamda yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash jamiyat taraqqiyotining muhim sharti ekanligini ta'kidlaydi ^[6].

Shuningdek, Alisher Navoiy asarlarida insonparvarlik va xalqparvarlik g'oyalari orqali milliy tuyg'ularning axloqiy asoslari yoritilgan bo'lib, bu qarashlar bugungi tarbiya jarayonida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi ^[7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot o'quvchilarda milliy tuyg'ularni shakllantirish masalasini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, metodologik asos sifatida davlat siyosatiga oid konseptual yondashuvlar, Sharq mutafakkirlari va zamonaviy pedagog olimlarning ilmiy qarashlariga tayaniladi. Tadqiqot jarayonida milliy tuyg'ularni shakllantirishda ta'lim va tarbiya birligi, tarixiy merosga tayanish, shaxsga yo'naltirilgan va faoliyatga asoslangan yondashuvlar ustuvor metodologik yo'nalish sifatida belgilandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'quvchilarda milliy tuyg'ularni shakllantirish mazmuni bir qator asosiy komponentlar asosida amalga oshiriladi. Avvalo, milliy o'zlikni anglash o'quvchining o'z millatiga mansubligini chuqur his etishi, milliy til, tarix va madaniyatni idrok etishi orqali shakllanadi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, milliy o'zlik shakllanmagan shaxsda mustahkam shaxsiy pozitsiya vujudga kelmaydi ^[8].

Tarixiy xotira milliy tuyg'ularning asosiy manbalaridan biri bo'lib, ajdodlar merosi, milliy davlatchilik tarixi va istiqlol g'oyalarini o'rganish orqali rivojlanadi. O'zbekiston Respublikasining 1-Prezidenti I. Karimov milliy o'zlik va tarixiy xotirani asrash masalasini millat kelajagi bilan bog'liq muhim omil sifatida baholagan ^[9].

Milliy qadriyatlar va an'analar, jumladan, milliy urf-odatlar, marosimlar hamda xalq og'zaki ijodi o'quvchilarning ma'naviy dunyosini boyitadi va ularning xulq-atvorida axloqiy me'yorlarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Milliy g'urur o'z xalqining yutuqlari bilan faxrlanishda namoyon bo'lib, vatanparvarlik tuyg'usi orqali yurt ravnaqi uchun mas'uliyat hissini kuchaytiradi. Ushbu jarayon o'quvchilarni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga undaydi ^[10].

O'quvchilarda milliy tuyg'ularni tarkib toptirishda ta'lim mazmuni va fanlar integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Tarix, ona tili va adabiyot, ma'naviyat asoslari fanlari orqali milliy g'oya va qadriyatlarni singdirish milliy tuyg'ularni shakllantirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Fanlararo integratsiya o'quvchilarda yaxlit milliy dunyoqarashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tarbiyaviy ishlar tizimi, jumladan, sinf soatlari, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, milliy bayramlar va xotira kunlari o'quvchilarda milliy tuyg'ularni hissiy jihatdan mustahkamlaydi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar – klaster yondashuvi, muammoli ta'lim, rejalashtirish metodi va interfaol metodlar o'quvchilarning milliy omillarni faol o'zlashtirishiga imkon beradi. Ushbu metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi ^[11].

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'quvchilarda milliy tuyg'ularni tarkib toptirish jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti, yosh avlodning fuqarolik pozitsiyasi va vatanparvarlik ongini shakllantirishda muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, milliy tuyg'ular mazmunan xalqning tarixiy xotirasi, madaniy merosi, urf-odatlari, an'analari, milliy qadriyatlari hamda davlat ramzlariga bo'lgan hurmat orqali namoyon bo'ladi.

Milliy tuyg'ularni shakllantirish jarayoni o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, tizimli, uzviy va maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni talab etadi. Ushbu jarayonda ta'lim va tarbiya uyg'unligi, fanlararo integratsiya hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, milliy tuyg'ularni rivojlantirishda an'anaviy tarbiya vositalari bilan bir qatorda innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, klaster yondashuvi, loyihaviy faoliyat va media-ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish samaradorlikni oshiradi. Ayniqsa, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy faolligi va ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirish milliy ong va o'zlikni anglashning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Takliflar:

Ta'lim mazmunini boyitish maqsadida umumta'lim fanlari tarkibiga milliy qadriyatlar, tarixiy shaxslar, madaniy meros va milliy g'oya bilan bog'liq mavzularni tizimli ravishda integratsiya qilish tavsiya etiladi. Milliy tuyg'ularni shakllantirish jarayonida klaster yondashuvi, muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish va interfaol metodlardan samarali foydalanish zarur.



Tarbiya jarayonida maktab va oila hamkorligini kuchaytirish, ota-onalar ishtirokida milliy bayramlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va tarbiyaviy suhbatlarni tashkil etish orqali milliy tuyg'ularning barqaror rivojlantirishiga erishish mumkin. Sinfdan va maktabdan tashqari faoliyatni takomillashtirish, jumladan, muzeylarga ekskursiyalar, tarixiy obidalarga sayohatlar, milliy san'at va adabiyotga bag'ishlangan to'garaklar tashkil etish o'quvchilarning milliy o'zlikni anglashini kuchaytiradi.

Raqamli va media vositalaridan maqsadli foydalanish, milliy mavzularga oid videodarslar, elektron resurslar, virtual loyihalar va media mahsulotlar orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirish tavsiya etiladi. Shuningdek, pedagog kadrlarning milliy tarbiya, zamonaviy metodika va innovatsion yondashuvlar bo'yicha kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus trening va seminarlar tashkil etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
3. Mirziyoyev Sh. M. O'zbekiston Respublikasi yoshlari bilan uchrashuvidagi nutqi. – Toshkent, 2020.
4. Karimova S. Ma'naviy tarbiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2019.
5. <https://abiturtest.uz/mavzular/sharq-uygonish-davrida-pedagogik-fikrlarning-rivojlanishi/>
6. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
7. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. – Toshkent: Fan, 2016.
8. Jo'rayev R. X. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
9. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
10. Qodirov B. Vatanparvarlik tarbiyasining pedagogik asoslari. – Toshkent, 2021.
11. Shodmonov Sh. Zamonaviy pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2022.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.